



ZAMONAVIY TA'LIM BOSHQARU VA TA'LIM MENEJMENTINI SAMARALI TASHKEL ETISH

Jurayeva Shalola Dehqonboyevna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1- bosqich magistranti
Jurayevashalola38@gmail.com

Qodirov Farrux Ergash o'g'li

Matematika va ta'limda axborot texnologiyasi kafedrası mudiri,
iqtisod fanlari doktori, DSc dotsent. Fan o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19333294>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 21-mart 2026 yil

Ma'qullandi: 25-mart 2026 yil

Nashr qilindi: 30-mart 2026 yil

KEYWORDS

Ta'lim, menejment, ta'lim menejmenti boshqaruv qarorlari, rahbarlik, uzluksiz ta'lim, ta'lim turlari PISA, TIMSS, World Bank, TALIS, xalqoro baholash dasturlari, boshqaruv mehanizmi, jamiyat va kreativlik.

ABSTRACT

Hozirda respublikamizning barcha sohalarida bo'lgani kabi ta'lim borasida ham katta islohotlarni amalga oshirilmoqda. Ta'lim rivoji va o'qitish uslublari yoshlarni yetuk kadr bo'lib voyaga yetishida yordam beradi. Maqolada ta'limni boshqarishning zamonaviy usullari, boshqaruv funksiyalari va shakllari xorijiy va mahalliy tadqiqotlar asosida yoritilgan. Menejment - bu samarali boshqaruv tizimdir bu tizimni ham ochib berishga yo'naltirilgan.

INNOVATIVE ACADEMY

Hozirgi kunda ta'lim mamlakat iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyotining poydevori bo'lgani uchun har doim diqqat markazida bo'lib yangi tamoyillarga asoslanishi, bozor iqtisodiyoti munosabati, mafkuraviy va axloqiy tamoyillarning o'zgarishi ishsizlik, moddiy yetishmovchilik, bolalarning nazoratsizligi, oilalarning ajralib ketish muammolarni ham yechimini topishga qaratilgan chora va tadbirlarni ishlab chiqishga asos bo'lmoqda.

Bu holatda bilamizki birinchi navbatda, bolalar, so'ngra esa kattalar ijtimoiy yordamga muhtojdirlar. Bunday sharoitlarda jamiyatning ijtimoiy muammolari bilan bog'liq bo'lgan pedagogik masalalarni hal qiluvchi, uning ijtimoiylashuvi jarayonida shaxsga yordam beruvchi mutaxassisi sifatida ijtimoiy pedagogga talab paydo bo'ldi. Har qanday mamlakatning kuchi uning, fuqarolarining ma'naviy yetukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma'naviy etukligi, intellektual salohiyati esa ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy e'tiqodlari asosida shakllantiriladi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. Milliy iqtisodiyotni turli tarmoqlarida yangi axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish, ularda raqamlashtirish tizimlarini joriy etish usullari, yangi axborot tizimlari asosida raqamli modellashtirish tamoyillari, korporativ boshqarish jarayonida avtomatlashtirilgan

axborot tizimlaridan foydalanish samaradorliklarini baholash, ular nazoratini amalga oshirish, raqamli iqtisodiyotning rivojlanish shart-sharoitlari kabi masalalar Qobulovning (1998) ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan[1]. Globallashuv jarayonlari va texnologik rivojlanish ta'lim sohasida tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Sabab esa Xalqora hamkorlik ta'lim sohasini tubdan o'zgartirib yubordi desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, raqamli transformatsiya tufayli an'anaviy boshqaruv uslublari endi zamonaviy yondashuvlar bilan boyitilmoqda. Brynjolfsson va McAfee esa o'zlarining "The Second Machine Age" asarida raqamli texnologiyalar va innovatsiyalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qanday tezlashtirishini tahlil qilishadi. Ular texnologik yangiliklar, jumladan, avtomatlashtirish va raqamli iqtisodiyot orqali yangi ish o'rinlarini yaratishga yordam berishini ta'kidlaydilar.[2]

Bu esa ta'lim tizimining boshqaruvini mutlaqo yangi bosqichga olib chiqmoqda. Endilikda maktab rahbarlari, ta'lim tashkiloti menejerlari, umuman, soha mutasaddilarining boshqaruvga oid qarorlari faqat ichki muammolarni hal qilish bilan cheklanmasdan, balki xalqaro miqyosdagi ta'lim sifatini oshirish, innovatsion metodlarni amaliyotga tatbiq etish va pedagogik jarayonni doimiy takomillashtirishni ham o'z ichiga olmoqda. Dunyo miqyosida tan olingan PISA (o'quvchilarning xalqaro baholash dasturi), TIMSS (matematika va tabiiy fanlar bo'yicha xalqaro monitoring tadqiqoti), hamda TALIS (o'qituvchilar va o'quv muassasasi rahbarlari faoliyatining xalqaro tadqiqoti), World Bank (moliyaviy yordam) kabi yirik ilmiy-amaliy loyihalar natijalari ta'limdagi muhim haqiqatni yaqqol ko'rsatib berdi: Bu xalqora tashkelotlar esa ta'lim sifatini oshirishga samarali yondoshadi o'quvchilarning bilim darajasi, ularning ijodiy fikrlash, muammolarni yechish va erkin fikrlash qobiliyati, pedagogik jamoaning rivojlanish sur'ati – bularning barchasi samarali boshqaruv bilan chambarchas bog'liq. Ya'ni, yaxshi tashkil etilgan, ilg'or boshqaruv tizimi mavjud bo'lgan ta'lim muassasalarida o'quvchilarning natijalari yuqori kuchli va ota-onalar bilan hamkorlik samaraliroq bo'lishi kuzatilmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda ta'lim sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat rahbariyati tomonidan ta'lim sifatini tubdan yaxshilash, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etish va xalqaro standartlarga mos ta'lim tizimini yaratish bo'yicha bir qator muhim qarorlar qabul qilindi. Xususan, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Oliy ta'lim, Fan va innovatsiyalar vazirligi hamda boshqa muassasalar tomonidan ishlab chiqilayotgan strategiyalar, dasturlar va milliy konsepsiyalar ushbu jarayonni tizimli tarzda yo'lga qo'yishga xizmat qilmoqda. Bu islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, shubhasiz, boshqaruv tizimining sifatiga bog'liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Sifatli ta'lim tizimi tashkel etish, ta'limdagi islohatlarni rivojlantirish, kuzatish, statistik tahlil qilish, olib borilgan tajribalarni qo'llay olish natijasida bir qancha samarali natijalarga erishish mumkun. Hozirgi ta'limda boshqarishning barcha darajalarida dasturiy-maqсадli yondashuv, tizimli yondashuv va tahlil keng qo'llanilayotganligi buning dalilidir. Boshqaradigan va boshqariladigan tizimlar, boshqarish sub'ekti va ob'ekti o'zaro munosabati qonuniyat ekanligi boshqaruv sohasining boshqaruv ob'ekti talablariga muvofiqligini bildiradi. Pedagogik amaliyotda innovatsion yondashuvlarni qo'llash o'quvchilarning fuqarolik madaniyatini bilish darajasini va huquqiy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirishda faollashtirilgan ta'lim metodlari samarali bo'lib, o'quvchilarda demokratik qadriyatlar va fuqarolik salohiyatini oshiradi.

Natijalar va muhokama. Bu kabi metodlar samarali tashkel etilsa boshqaruv tizimi va boshqaruv menejmenti uchun va fuqolararning ijtimoyillashuvi uchun muhim ahamiyat kasb etdi. Hozirgi davrda menejment - boshqaruviga qo'yiladigan turli talablarni, ya'ni ish usuliga, ishni olib bora olish qobiliyatiga, odamlar harakatini birgalikdagi faoliyatda to'g'ri yo'naltirish san'ati va fanga qo'yiladigan talablarni qattiq ma'muriy talabsiz belgilangan maqsadning bajarilishini o'zida aks. Ta'limni boshqarish qonuniyatlari boshqaruv jarayonida turli elementlar va hodisalarning ob'ektiv ravishda mavjud bo'lgan, takrorlanuvchi o'zaro aloqalarini aks ettiradi. Ular **umumiy va xususiya** bo'linadi. **Umumiy qonuniyatlari** boshqaruvning barcha tizimlariga xos bo'lsa, **xususiylari** ayrim ta'lim tashkilotlari va muassasalarining amal qilishi bilan bog'liq. Quyidagilarni boshqaruvning umumiy qonuniyatlari sirasiga kiritish mumkin:

- ustuvor samaradorlik;
- ongli rejali boshqarish;
- boshqaradigan va boshqariladigan tizimlar;
- boshqarish sub'ekti ;
- ob'ektning o'zaro munosabati;
- boshqaruvda mehnat taqsimot jarayonlarini kuchaytirish. Ushbu qonuniyatlarni ko'rib chiqamiz.

Ta'limni ongli boshqarishning ustuvor samaradorligi qonuniydir, chunki unda kechayotgan jarayonlarni rejali boshqarish tizimi amalda ushbu jarayonlarni beixtiyor tartibga soladigan boshqarish tizimlaridan samaraliroqdir. Chunonchi, iqtisodiyotni rivojlantirishda 90-yillarning o'rtalaridan ko'zga tashlangan siljishlar mamlakatimizda butun boshqaruv apparatini muayyan o'zgartirishni talab qildi, bu hol 1997 yildan boshlangan ta'lim va kadrlar tayyorlashdagi islohotlar majmuida o'z ifodasini topdi. Natijada ta'lim va uni boshqarish tizimi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar, fan-texnika taraqqiyoti talablariga mos tushgan holda barqaror rivojlanish tamoyilini kasb etdi [5]. Boshqaruvda mehnat taqsimoti va kooperatsiyalash jarayonlarining kuchayishini ham ta'limni boshqarishning umumiy qonuniyatlariga kiritish mumkin. Bugun ta'lim muassasalari rahbarlari strategik fikrlaydigan, raqamli texnologiyalarni boshqaruvga joriy eta oladigan, jamoa bilan ishlash madaniyatiga ega va muammolarni ijodiy hal qila oladigan, menejerlik salohiyatiga ega shaxslar bo'lishi kerak. Shuningdek, zamonaviy boshqaruvda muhim omillardan biri bu – ochiqlik, javobgarlik va natijadorlik tamoyillaridir. Aynan, shu tamoyillar asosida ishlaydigan ta'lim tashkilotlarida islohotlar real samara berishi, o'quvchilar bilim sifati oshishi va jamoatchilik ishonchi kuchayishi mumkin.

Korxonaning raqamli transformatsiyasidan asosiy maqsad, bizningcha, uning raqobatbardoshligini oshirish va ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni taominlashdan iborat. Raqamli transformatsiya vazifasining maqsadiga muvofiq korxonalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni tashkil etish;
- yuqori samaradorlikka, ishlab chiqarish va tashkiliy jarayonlarning moslashuviga erishish;
- korxonaning investitsion jozibadorligini oshirish;
- korxonaning iqtisodiy samaradorligini kafolatlaydigan boshqaruv tizimining moslashuvchanligi va shaffofligini oshirish va boshqalar.

Korxonaning raqamli transformatsiyasini loyihalash uchun raqamli texnologiyalarning korxonada joriy etilishining mavjudligi va maqsadga muvofiqligi mezoniga ko'ra tasnifini ishlab chiqish kerak. Shunday qilib, asosiy raqamli texnologiyalar uchta guruhga birlashtirilgan.

Muhokama Maktab yirik sanoat ishlab chiqarishida hamma joyda paydo bo'ladigan bir qator muhim boshqaruv muammolarini hal qildi. Menejmentda eng asosiy vazifa - bu odamlar bilan ishlashdir. Menejment haqidagi keltirilgan tavsiflar shundan dalolat beradiki, u boshqaruv ma'nosini bildiradi turib, ma'muriy buyruqbozlik iqtisodiy boshqaruvdan tubdan farq qiladi. Bu farqlar quyidagicha: Birinchi farq - bu bozor iqtisodiyotiga taalluqli bo'lib, ma'muriy buyruqbozlik xo'jalikni reja asosida olib borish tizimi emasdir. Ikkinchi farq - birinchi farqdan kelib chiqadiki, ya'ni taraqqiy topgan davlatlarda menejment iqtisodiy boshqaruv usuli hisoblanadi. Uchinchi farq - menejmentni sotsialistik tizim boshqaruvidan farqini oxirgi to'rtta tavsifni birlashtirish asosida aniqlash mumkin. Uni "menejment - bu samarali boshqaruv fani va san'ati"dir deyish mumkin. Korxonaning raqamli transformatsiyasining tarmoq modeli sanoat yondashuviga va sanoat korxonalarining milliy iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari korxonalari bilan aloqalariga asoslanadi. Ushbu model doirasida raqamli infratuzilmani yaratish va uning elementlari: raqamli ishlab chiqarish tizimi, oziq-ovqat va suv yetkazib berish, aqlli energiya ishlab chiqarish tizimlari, aqlli zavodlar, taqsimlangan energiya tizimlari, haydovchisiz avtomobil tizimlari, uchuvchisiz havo kemalari, raqamli temir yo'llar, telemeditsina, raqamli tibbiyot, aqlli uylar, aqlli yo'llar, raqamli moliyaviy texnologiyalar, raqamli xavfsizlik tizimlari, elektron tijorat, raqamli madaniyat bir-biri bilan funktsional munosabatlar orqali ta'sirlashadi.

Kelajakda raqamli iqtisodiyot yanada rivojlanib, biznes jarayonlarining samaradorligi oshib borishi kutilmoqda. Shu sababli korxonalar o'z strategiyalarini raqamli transformatsiya tamoyillariga moslashtirishi, innovatsiyalarga sarmoya kiritishi va iste'molchilarga yuqori darajadagi xizmat ko'rsatishi zarur. Faqat shundagina, ular global bozorning talablariga javob bera oladigan yetakchi o'yinchilarga aylanishi mumkin.

Xulosa va takliflar Zamonaviy pedagog glaballashuv jarayoni bilan uzviy bog'liqdir. Natijada o'qituvchilarning pedagogik malakasini va o'quvchilarga bo'lgan munosabatlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Boshqaruvda gorizontal ishtirok o'qituvchilar, otalar va o'quvchilarning fikrlarini hisobga olishni anglatadi. Bu tizimda qarorlar ko'p tomonlama tahlil qilinadi. Xalqaro baholash dasturlari esa - ta'lim tizimi yaxshilashga innovatsion boshqaruv va samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan. Ushbu yondashuvning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat. O'quvchilarga tanqidiy fikrlash, kreativlik va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari beriladi. Ta'lim tizimida liderlik maktablari va ta'lim boshqaruvining innovatsion elementlari muhim o'rin tutadi. Bu tizimda o'qituvchilarni boshqaruvning yuqori darajalariga tayyorlashga alohida ahamiyat beriladi. Ta'lim samaradorligini tahlil qilish uchun maxsus platformalar yaratilgan. Bu platformalar orqali ta'lim jarayonlari doimiy monitoring qilinadi va kerakli o'zgarishlar amalga oshiriladi.

Raqamli transformatsiyaning tegishli modellaridan, ya'ni jarayon, tarmoq, texnologik modellaridan birini tanlash esa sanoat korxonalarida bajarilishi kerak bo'lgan ishlarni spetsifikatsiya qilishga, samaradorlikni izchillikda va aniq belgilangan harakatlar rejasi orqali oshirish imkonini beradi.

Boshqaruv bosqichlari sonini maqbullashtirish qonuniyatlari boshqaruvning ortiqcha bo'g'inlarini bartaraf etishni taqozo qiladi, bu hol uning moslashuvchanligi va tezkorligini kuchaytiradi. Ta'limni boshqarish funksiyalarini jamlash shundan iboratki, har bir boshqaruv bosqichi funksiyalarni ko'proq jamlashga, ya'ni boshqaruv xodimlari sonini ko'paytirishga intiladi. Barcha mamlakatlarda byurokratik apparat soni oshib borayotgani haqida ma'lumotlar bu qonuniyatni yaqqol namoyish etadi. Nazoratning yoyilganlik qonuniyati qo'l ostidagi xodimlar soni bilan boshqaruv xodimi tomonidan ularning faoliyatiga samarali rahbarlik qilish va ishlarini nazorat qilish imkoniyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni aks ettiradi. Ta'lim va tarbiya tarbiya har qanday jamiyatning ajralmas tarkibiy qismi, madaniyatining ko'rsatkichi va taraqqiyotining asosidir. Uijtimoiy tajriba, ma'naviy-axloqiy va madaniy an'analarning birligini va vorisiyligini hamda jamiyat rivojini ta'minlaydi. Ushbu dastur ta'lim va tarbiyani boshqarishning zamonaviy tizimi va uni boshqarishning asosiy tamoyillari, xususiyatlari Maktabgacha ta'lim tomonidan maktabgacha ta'limni boshqarishning maqsadi, vazifalari, maktabgacha ta'lim va tarbiyani boshqarishning vazifasi, boshqarish usullari, shakllari, tamoyillari, qonuniyatlari shuningdek, turli tipdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etishning prinsiplari va unga ilmiy-nazariy yondashuviga etibor qaratiladi. Har bir olib borilayotgan yondoshuvlar esa sifatli ta'lim tashkel etish uchun qaratilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent 2023. 224-bet
3. Brynjolfsson, E., & McAfee, A. (2014). The Second Machine Age: Work, Progress, and Prosperity in a Time of Brilliant Technologies.
3. Fayol A. General and Industrial Management. 1916. 3. Drucker P. The Practice of Management. – New York: Harper & Row. 1954.
4. Deming W. E. Out of the Crisis. – Cambridge, MA: MIT Press. 1986.
5. Mintzberg H. The Nature of Managerial Work. – New York: Harper & Row. 1973.
6. Кобулов В.К. (1998) Алгоритмизация в социально-экономических системах. Tashkent: Fan, 320 s. (Kobulov V.K. (1998) Algorithmization in socio-economic systems. - Tashkent: Fan, 320 p.)
7. Turg'unov S. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari direktorlarining boshqaruv faoliyatining nazariy asoslari. – Toshkent: "Fan", 2006. 63-65-bet.
8. Muminova, E., Honkeldiyeva, G., Kurpayanidi, K., Akhunova, S., & Hamdamova, S. (2020). Features of Introducing Blockchain Technology in Digital Economy Developing Conditions in Uzbekistan. In E3S Web of Conferences (Vol. 159, p. 04023). EDP Sciences.
9. Alimova, S. (2024). THE MAJOR FACTORS INFLUENCING ON CAREER DEVELOPMENT AND ON ADVANCE OF A CAREER LADDER. Modern Science and Research, 3(5), 417-425.
10. Менеджмент средней и высшей школы: 100 новых понятий: Сравнительный словарь на русском и немецком языке / Авторы-издатели: О. Грауман, Р.В. Кек, М.Н. Певзнер, А.Г. Ширин. - Хильдесхайм, Германия, 2004
11. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi, "Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar", 2022.
12. Алланазарова, Анора. «ЯПАЙ ЗЕКА БЕ ОЗБЕК ДИЛИ: СОПУНЛАР БЕ ЧОЗЮМЛЕР». Конференции . Том. 1. № 01. 2025.

13. Allanazarova, Anora, and Muxiba Yaxiyaxonova. "INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA MEDIASAVODXONLIGINING O'RNI." Универсальная индексная библиотека науки и техники в современном мире 4.11 (2025): 23-27.
14. Ergash o'g'li, Qodirov Farrux. "INNOVATSION YONDASHUVLAR YORDAMIDA KAMBAG 'ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIKNI TA'MINLASH." FAROVONLIK SARI: PARTIYAVIY YONDASHUV VA AMALIY TASHABBUSLAR (2025): 612.
15. Qodirov, Farrux, and Anora Allanazarova. "TA'LIMNI BOSHQARISH TIZIMLARI TASNIFI." Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies 2.11 (2025): 113-117.
16. O'G'Li, Qodirov Farrux Ergash, and Allanazarova Anora Muxobir Qizi. "GIPER HAVOLALAR VA SAYT BO'YICHA NAVIGATSIYA." Central Asian Journal of Education and Innovation 4.11 (2025): 4-11.
17. Qodirov, Farrux, and Anora Allanazarova. "Axborot Texnologiyalarining Ta'lim Jarayonidagi O 'rni Va Rivojlanish Bosqichlari." Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal: 676587.

